

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**  
**H U K M**

2024 yil iyul oyining 31 kuni, jinoyat ishlari bo'yicha Uchquduq tuman sudi sayyor sud majlisi Uchquduq tumani "Mustaqillik" MFY binosida ochiq sud majlisi bo'lib, raislik qiluvchi sud raisi [REDACTED], I [REDACTED] kotibligida, taraflardan davlat ayblovchisi Uchquduq tuman prokurori o'rinbosari B.Rizaev, sudlanuvchi [REDACTED] ishtirokida, [REDACTED] [REDACTED] ga nisbatan 1-2109-2401/43-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi.

Ish hujjatlariga ko'ra:

[REDACTED], 1980 yil 30 iyunda Navoiy viloyati Xatirchi tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta, nafaqada, oilalik, 3 nafar farzandlari bor, muqaddam sudlanmagan, Navoiy shahar, "G'alabashoh" ko'chasi 130g-uyda yashaydi, 29.06.2024 yilda munosib hulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2024 yil 15 iyul kuni olgan,

O'zbekiston Respublikasi JKning 177-moddasi 3-qismi "v" bandi bilan ayblangan.

Sud, sudlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini atroflicha tekshirib chiqib, ishda mavjud bo'lgan dalillarga baho berib, quyidagilarni

**A N I Q L A D I:**

Sudlanuvchi [REDACTED] O'zbekiston Respublikasida valyuta qimmatliklarini o'tkazish qonunga xilof ekanligini bila turib, ukasi fuqaro Z.Chiniqulov bilan bir guruh shaxslar sifatida oldindan o'zaro til biriktirib, noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirish maqsadida, 2024 yilning 28 may kuni Navoiy shahrining markaziy dehqon bozori hududida joylashgan 18-sonli savdo do'konida, ariza muallifi [REDACTED] qonunga xilof ravishda har bir AQSh dollarini 12 ming 700 so'mdan hisoblab, 3 ming 500 AQSh dollarini jami 44 mln. 450 ming so'mga sotgan vaqtida Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi xodimlari tomonidan ushlangan va 3 ming 500 AQSh dollari ("O'zmilliy bank" AJ Navoiy filialining 29.05.2024 yildagi ma'lumotiga asosan, 28.05.2024 yil holatiga 1 AQSh dollarining so'mga nisbatan qiymati 12.679 so'mni tashkil qilganligi ko'rsatilgan) ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan.

Sudlanuvchi [REDACTED] sudda, aybiga to'liq iqrorlik bildirib, 2024 yil 28 may kuni Navoiy shahri Markaziy dehqon bozorida 18-do'konda joylashgan "Shag'bozbek Uchquduq" MChJ savdo do'konida savdo qilayotganida ukasi Zohid telefon qilib, bir tanishiga 3.500 AQSh dollari kerakligini va [REDACTED] ismli shaxs telefon qilishini aytganligi, shundan so'ng unga [REDACTED] telefon qilganligi, Kamol telefon orqali 3.500 AQSh dollari borligi, har bir AQSh dollari qanchadan sotilayotganligini so'raganligi [REDACTED] har bir AQSh dollari 12.700 so'mdan sotilishini aytganligi, shundan keyin soat



taxminan 17:05 larda u savdo qilayotgan do'konga [REDACTED] kirib kelganligi va kelishilgan 3.500 AQSh dollarini unga sotishini so'raganligi, u rozi bo'lganligi va 3.500 AQSh dollarini 12.700 so'mdan hisoblaganida jami 44.450.000 so'm bo'lganligi, shundan so'ng [REDACTED] unga 3.500 AQSh dollari uchun 45.000.000 so'm pul berganligi, shundan so'ng Kamolga 500 ming so'm pullarni qaytarib berganligi, 50 ming so'm pullarni Kamolning undan qarzi bo'lganligi uchun olib qolganligi, Kamol undan oldin taxminan 700 yoki 800 ming so'mlik oziq ovqat maxsulotlari olganligi, u mazkur qarzini bermasdan kelganligi, shu bois unga bergan 45.000.000 so'm pullaridan 550 ming so'm qaytarib berishi kerak bo'lsada, 500 ming so'm qaytarib berganligi, Kamolning o'zi "500 ming so'm bering bo'ladi" deganligi, shundan so'ng Kamol undan 3.500 AQSh dollari pullarni olib kettganligi, birozdan so'ng u savdo qilayotgan savdo do'koniga unga notanish bo'lgan kishilar kirib kelishib, o'zlarini Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi xodimlari ekanliklarini aytib, xizmat guvohnomalarini ko'rsatishganligi, unga JPKning 48-moddasini huquq va majburiyatlarini tushuntirishhanligi hamda ular unga o'zlarini tanishtirishib va biroz oldin kim bilan nima maqsadda uchrashganligini so'rashganli, shunda u o'zini Chinniqulov Dilshod deb tanishtirganli va [REDACTED] ismli fuqaroga har bir AQSh dollarini 12.700 so'mdan hisoblab 3.500 AQSh dollarini jami 44.450.000 so'mga sotganligi, shundan so'ng u o'z ixtiyori bilan K.Hikmatovdan olingan 4 o'ramdagi 100 ming so'mlik va 1 o'ramdagi 50 ming so'mlik kupyuralardagi jami 44.450.000 so'm pullarni xodimlarga taqdim qilganligi, shunda tezkor xodimlar xolislar ishtirokida mazkur pullarni olib ko'zdan kechirganda ulardagi bayonnomadagi pullarning seriya va raqamlar bir xil ekanligini ko'rganligi, mazkur 3.500 AQSh dollar pullarni 2024 yil 15 aprel kuni o'g'lini uylantirganida qarindosh-urug'lari to'yona sifatida berishganligi, kredit qarzdorliklari borligini uchun kredit qarzdorliklarni so'mda to'lashi uchun kerak bo'lganligini sababli 3.500 AQSh dollarini sotganligi, oldin biror marotaba chet el valyuyatasini ayirboshlash ishlari bilan shug'ullanmaganligi, chet el valyutasini pullarni qo'lda sotib olish va sotish noqonuniy ekanligini bilganligi, lekin jinoiy oqibatlariga olib kelishini bilmasligini, aslida mazkur pullarni bank orqali sotishi kerakligini, qilgan ishidan pushaymon ekanligi, IIB tizimidan nafaqaga chiqqanligi, ikki nafar farzandlarini kontrakt o'qitishligini bayon qilib, yengil jazo tayinlashni so'radi.

Guvoh [REDACTED], o'z ishlari bilan Navoiy shahrida yurgan vaqtida "Zohid" ismli shaxs bilan tanishib qolganligi, u bilan suxbatlashish jarayonida chet el valyuta qiymatliklari savdosi haqida gaplashib qolganligi, shunda u har bir AQSh dollarini 12.700 so'mdan sotishini bildirganligi, uning bu harakati qonunga zid ekanligini bilgan holda Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasiga ariza bilan murojaat qilganligi, Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi xodimlari uning arizasiga asosan Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi hisobida maxsus kassasida saqlanayotgan 100.000 (bir yuz ming) so'mlik kupyuradagi 4 (to'rt) o'ramdagi 400 dona jami 40.000.000 (qirq million) so'm va 50.000 (ellik ming) so'mlik kupyuradagi 1 (bir) o'ramdagi 100 dona jami 5.000.000 (besh million) so'm



hammasi bo'lib 45.000.000 (qirq besh million) so'm olinganligini va 100.000 (bir yuz ming) so'mlik kupyuradagi pullarning siriya raqamlari tanlanma asosida 40 dona pullar bayonnomaga kiritilganligi, 50.000 (ellik ming) so'mlik kupyuradagi pullarning siriya raqamlari tanlanma asosida 10 dona pullar bayonnomaga kiritilganligi, shundan so'ng ovoz yozish moslamasi bilan birgalikda xolislar ishtirokida taqdim etilganligi, so'ngra, ushbu berilgan pullar "Zohid" ismli shaxs tomonidan olinganidan keyin tezkor xodimlarga tegishli ishorani berishi to'g'risida ko'rsatmalar berilganligi, shundan so'ng, u [REDACTED] ismli shaxs bilan telefon orqali suxbatlashganda, "Zohid" tomonidan +99894-228-01-33 telefon raqami berilib, ushbu telefon raqam egasi bilan ko'rishishi kerakligini bildirganligi, so'ng u "Zohid" ismli shaxs tomonidan berilgan +99894-228-01-33 telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib raqam egasi bilan Navoiy shahar "Saxovat dehqon bozori" MChJ hududidagi 18-sonli savdo do'konida ko'rishishga kelishishganligi, shundan keyin tezkor xodimlar kuzatuv ostida Navoiy shaharidagi "Saxovat dehqon bozori" MChJ hududidagi 18-sonli savdo do'koni oldiga soat 16:30 larda borilganligi va u qo'lida qora paketga solingan pullarni ko'targan xolda avtomoshinadan tushib 18-sonli savdo dükoniga kirib savdo dükonida o'tirgan yoshlari taxminan 40-44 yoshlardagi erkak kishi bilan ko'rishganligini, "Dilshod" bilan so'rashganligi, Dilshod Uchquduq tumanida ishlagan va yashagan vaqtida tanish bo'lganligi, Dilshod AQSh dollari borligini va har bir dollarini 12.700 AQSh dollaridan sotishini aytganligi, shundan so'ng unga yonida 45.000.000 so'm pullar borligini bildirganligi, "[REDACTED] so'm bo'lishini aytganligini unga rozi bo'lganligini, shunda, "Dilshod" 45.000.000 so'm pullarni olib, qaytim sifatida pullarni uzatganligi, u qaytim pullarini sanamasdan olganligini, so'ng, savdo dükonidan chiqqanligini va oldindan kelishilgan ishorani tezkor xodimlarga taqdim etganligini hamda u yerni tark etganligi, oradan biroz o'tib, u Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasiga kelganligi va tadbir ishtirokchilari hamda xolislar ishtirokida undan 3.500 (uch ming besh yuz) AQSh dollari pullar va qaytim sifatida "Dilshod"dan olgan pullarni topshirganligi, [REDACTED] bilan [REDACTED] 7 yoki 8 yil oldindan beri tanishligi, ular oldin Uchquduq tumanida yashashganligi, o'sha vaqtlarda ularning dükoni borligini, do'kondan narsa olib turganligini, shundan so'ng ular bilan ko'rishmay ketganligi, "Zoxid" va "Dilshod" lar bilan orasida biror-bir adovatlar mavjud emasligi, [REDACTED] dükonidan qarzga bundan 7 yoki 8 yil oldin narsa olganligi, lekin 700 yoki 800 ming so'm emas, adashmasa 145 ming so'm qarzi qolgan bo'lishi mumkinligi, lekin hozir aniq qancha qarzi qolganligini eslay olmasligi, bo'lib o'tgan tadbirga mazkur qarzning hech qanday aloqasi yo'qligi, bugungi kunda [REDACTED] va [REDACTED] bilan o'rtalarida hech qanday oldi berdi mavjud emasligi, ularning dükonidan ancha yillar oldin qarzga narsa olgan bo'lishi mumkinligi, lekin ularning xatti-harakatlari ya'ni dollar sotishi noqonuniy, shu bois huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilganligini bayon qildi.

Guvoh [REDACTED] sudda, u 2024 yil 28-may kuni o'ziga oldindan tanish bo'lgan Kamol ismli shaxs unga telefon qilib 3.500 AQSh dollari



kerakligini aytganligi, shunda Kamolga “mayli yordam beraman” deganligi va o‘zining akasi [REDACTED] telefon qilib akasiga so‘mda pul kerakligini bilganligi uchun 3.500 AQSh dollari bormi deb so‘rganligi, akasi borligini aytganligi, shundan so‘ng akasiga, Kamol ismli tanishiga 3.500 AQSh dollari kerakligi, so‘mga almashtirib berishini aytganligi va akasiga AQSh dollari kursini 12.700 so‘mdan ekanligini aytganligi, keyin Kamol ismli tanishiga akasining +998-94-228-01-33 telefon raqamini berib, u bilan gaplashishini aytganligi, shundan so‘ng Kamol ismli tanishi akasi [REDACTED] bilan gaplashib uning oldiga borib, 3.500 AQSh dollarini 44.450.000 so‘mga sotib olganligi, shu vaqtda ya‘ni akasi 3.500 AQSh dollari pullarni sotgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari kelishib, ushlariganligini bilganligi, ushbu holatdan hech qanday manfaatdor bo‘lmaganligi, faqat Kamolga valyuta kerak bo‘lganligi uchun va akasiga so‘m kerakligi uchun Kamolga akasida 3.500 AQSh dollari borligini aytganligi, Kamolni ancha vaqtdan beri va yaqindan tanishi, u bilan yaqin jura bo‘lganligi, u bilan shaxsiy adovati bo‘lmaganligi, Kamol bilan o‘rtasida qarz munosabatlari ham mavjud emasligi, 3.500 AQSh dollar pullari akasi [REDACTED] tegishli bo‘lganligi, valyuta qimmatliklarini bank muassasalaridan boshqa joylarda, masalan qo‘lda fuqarolardan sotib olish yoki o‘tkazish noqonuniy ekanligini bilishini, lekin jinoiy oqibatlariga olib kelishini bilmasligi, aslida mazkur pullar akasi tomonidan bank orqali sotilishi kerakligini bayon qildi.

Sud, davlat ayblovchisining xulosasini tinglab, sudlanuvchi va guvohlarning ko‘rsatuvlarini eshitib, jinoiyat ishi hujjatlarini o‘rganib chiqib, [REDACTED] jinoiyat sodir etganlikdagi aybi,

-K.Hikmatovning jinoiyat haqidagi xabar beruvchi arizasi (i.v 6);

-audio yozuvlarni qabul qilib olish va eshitib ko‘rish to‘g‘risida bayonnoma (i.v 7-8);

-“tezkor eksperiment” tezkor-qidiruv tadbiri uchun pul berish haqida bayonnoma (i.v 9-10);

-“tezkor eksperiment” tezkor-qidiruv tadbiri uchun ovoz yozib olish moslamasi (diktofon) berish haqida bayonnoma (i.v 11-12);

-“tezkor eksperiment” tezkor-qidiruv tadbiri uchun ovoz yozib olish moslamasi (diktofon) qaytarib olish haqida bayonnoma (i.v 17);

-“tezkor eksperiment” tezkor-qidiruv tadbiri o‘tkazilganligi to‘g‘risida bayonnoma (i.v 17-21);

-sud-texnik kriminalistik ekspertizasining 2024 yil 3 iyundagi 230-sonli xulosasi va fotojadval (i.v 53-55), tushuntirish xatlari, so‘roq bayonnomalari, ashyoviy dalil deb e‘tirof etish haqidagi qaror, so‘roq bayonnomalari hamda jinoiyat ishida to‘plangan boshqa dalillar bilan isbotlangan deb topadi.

Sud, dastlabki tergov organi tomonidan sudlanuvchi [REDACTED] bir guruh shaxslar bo‘lib, oldindan o‘zaro til biriktirib, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda o‘tkazganlikdagi jinoiy harakati JKning 177-moddasi 3-qismi “v” bandi bilan to‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Oliy sud Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoiyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli Qarorining 3-bandida,



Jinoyat kodeksining 8,54-moddalari mazmuniga ko'ra, jazo adolatli bo'lishi har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo'lishi;

37-bandida, JK 57-moddasiga muvofiq, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq jazo tayinlanishi mumkin. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi alohida holatlar ro'yxati qonunda ko'rsatilmaganligini nazarda tutib, sud qabul qilgan qarorini hukmda asoslantirgan holda jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatni ham, ularning majmuini ham bunday holat sifatida tan olishi mumkin (masalan, moddiy zararining to'liq qoplanganligi, sudlanuvchi yoki ota-onasining og'ir kasalligi, ularning mehnatga layoqatsizligi, aybdor ota-onasining yoki bolasining boshqa boquvchisi yo'qligi, sudlanuvchining keksa yoshda ekanligi, uning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatni ochishda faol ishtirok etganligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga turtki bergan huquqqa xilof xulq-atvori, jabrlanuvchining sudlanuvchi bilan yarashganligi va h.k.) deb tushuntirish berilgan.

Sud, [REDACTED] jazo turi va miqdorini tayinlashda, JKning 55 va 56-moddalari talablariga rioya qilib, Oliy sudi Plenumi Qarorlarining rahbariy ko'rsatmalaridan kelib chiqqan holda, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, aybiga to'liq iqror va qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, muqaddam sudlanmaganligini, IIB tizimida ishlab nafaqaga chiqqanligi, ikki nafar farzandi oliy o'quv yurtida kontrakt to'lov asosida o'qishligi, yashash joyidan ijobiy tavsiflanganligi, oilaviy sharoiti va moddiy imkoniyatini jazosini yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olib, shu bilan birgalikda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb e'tirof etib, JKning 7 va 8-moddalarida ko'rsatilgan insonparvarlik va odillik prinsiplari talablaridan kelib chiqib, unga nisbatan JKning 57-moddasini qo'llab, JKning 177-moddasi 3-qismi "v" bandida belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq muddatga jarima jazosi tayinlashni, unga qo'llanilgan "munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat" ehtiyot chorasini bekor qilishni lozim topadi.

Sud, ashyoviy dalil deb e'tirof etilib, K.Hikmatovning 28.05.2024 yilda Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi boshlig'i nomiga yozgan arizasi, 28.05.2024 yildagi "Arizaga ilova qilingan audio yozuvlari qabul qilib olish va eshitib ko'rish to'g'risida"gi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri uchun pul berish haqidagi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri uchun ovoz yozish moslamasi berish to'g'risidagi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri uchun ovoz yozib olish moslamasini qaytarib olish haqidagi bayonnoma, so'zlashuvlar yozib olingan diktafonni ko'zdan kechirish va eshitib ko'rish to'g'risidagi bayonnoma, "O'zmilliybank" AJ Navoiy amaliyot BXMning 29.05.2024 yildagi



02-3464/04-sonli xati, Navoiy viloyat IIB EKMning 03.06.2024 yildagi №230-sonli ekspert xulosasi, [REDACTED] 28.05.2024 yilda Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi boshlig'i nomiga yozgan arizasiga ilova qilingan DVD+R disk, tezkor tadbir jarayonlarida olingan vedio va audio fayllar mavjud bo'lgan "DVD+R" disk, 30.06.2024 yildagi [REDACTED] Arizaga ilova qilingan va tezkor tadbir jarayoni yozib olingan DVD disklar va "Ovoz yozib olish moslamasini eshitib ko'rish to'g'risda"gi bayonnoma bilan tanishtirish va yozib olingan so'zlashuvlarni eshittirish haqida bayonnomalarni jinoyat ishi bilan birga saqlashni;

Protsessual tartibda rasmiylashtirilib olingan "O'zmilliybank" AJ Navoiy amaliyot BXMda saqlanayotgan 3.500 (uch ming besh yuz) AQSh dollari pul mablag'larini davlat daromadlari hisobiga o'tkazilishini;

Tezkor tadbir davomida maxsus ishlov berilgan 45.000.000 so'm miqdordagi naqd pullar Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentini Navoiy viloyat boshqarmasining depozit hisob raqamiga topshirilganligini qayd etishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 460, 463, 465-468, 471-473-moddalariga amal qilib, sud

## HUKM QILDI:

[REDACTED] O'zbekiston Respublikasi JKning 177-moddasi 3-qismi "v" bandi bilan aybli deb topilsin.

Unga O'zbekiston Respublikasi JKning 177-moddasi 3-qismi "v" bandi bilan JKning 57-moddasini qo'llab, bazaviy hisoblash miqdorining 100 (yuz) baravari miqdorida, ya'ni (340.000x100) 34.000.000 (o'ttiz to'rt million) so'm jarima jazosi tayinlansin.

Tayinlangan jarima davlat daromadiga undirilsin.

Ashyoviy dalil deb e'tirof etilib, [REDACTED] 28.05.2024 yilda Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi boshlig'i nomiga yozgan arizasi, 28.05.2024 yildagi "Arizaga ilova qilingan audio yozuvlari qabul qilib olish va eshitib ko'rish to'g'risida"gi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri uchun pul berish haqidagi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri uchun ovoz yozish moslamasi berish to'g'risidagi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri o'tkazilganlig to'g'risidagi bayonnoma, "Nazorat ostida olish" tezkor-qidiruv tadbiri uchun ovoz yozib olish moslamasini qaytarib olish haqidagi bayonnoma, So'zlashuvlar yozib olingan diktafonni ko'zdan kechirish va eshitib ko'rish to'g'risidagi bayonnoma, "O'zmilliybank" AJ Navoiy amaliyot BXMning 29.05.2024 yildagi 02-3464/04-sonli xati, Navoiy viloyat IIB EKMning 03.06.2024 yildagi №230-sonli ekspert xulosasi, K.Hikmatovning 28.05.2024 yilda Departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi boshlig'i nomiga yozgan arizasiga ilova qilingan DVD+R disk, tezkor tadbir jarayonlarida olingan vedio va audio fayllar mavjud bo'lgan "DVD+R" disk, 30.06.2024 yildagi D.Chiniqulovga Arizaga ilova qilingan va tezkor tadbir jarayoni yozib olingan DVD disklar va "Ovoz yozib olish moslamasini eshitib ko'rish to'g'risda"gi



bayonnoma bilan tanishtirish va yozib olingan soʻzlashuvlarni eshittirish haqida bayonnomalar jinoyat ishi bilan birga saqlansin.

Protsessual tartibda rasmiylashtirilib olingan “Oʻzmilliybank” AJ Navoiy amaliyot BXMDa saqlanayotgan 3.500 (uch ming besh yuz) AQSh dollari pul mablagʻlari davlat daromadlari hisobiga oʻtkazilsin.

Tezkor tadbir davomida maxsus ishlov berilgan 45.000.000 soʻm miqdordagi naqd pullar Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentini Navoiy viloyat boshqarmasining depozit hisob raqamiga topshirilganligi qayd etilsin.

Hukm ustidan taraflar hukm eʼlon qilingan kundan eʼtiboran oʻn sutka ichida, sudlanuvchi hukm nusxasini olgan kundan eʼtiboran shu muddat ichida, apellyatsiya tartibida Navoiy viloyat sudi apellyatsiya instansiyasiga shikoyat berishi yoki protest bildirishi, hukm qonuniy kuchga kirgandan soʻng kassatsiya tartibida Navoiy viloyat sudi kassatsiya instansiyasiga shikoyat berishi yoki protest bildirishi mumkin.

**Raislik qiluvchi:**

